

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**«O'ZMELIOMASHLIZING» DAVLAT LIZING KOMPANIYASI TUZILMASINI VA
FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO`G`RISIDA**

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2012 y., 28-son, 322-modda; 2013 y., 26-son, 338-modda)

«O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi faoliyatini takomillashtirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tuzilmasini takomillashtirish va xodimlari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2010-yil 12-yanvardagi PQ-1260-son hamda «Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tuzilmasini yanada takomillashtirish va xodimlari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2010-yil 20-dekabrdagi PQ-1444-son qarorlariga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Oldingi tahrirga qarang.

«O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi ijro etuvchi apparatining xodimlarning cheklangan umumiy soni (xizmat ko`rsatuvchi xodimlardan tashqari) 15 nafar bo`lgan tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

(1-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

«O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini xarid qilish va lizingga berish, shuningdek «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining «Meliomashlizingservis» sho`ba korxonasi tomonidan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalariga texnik va servis xizmati ko`rsatish uchun tovarlar, ehtiyoq qismlar va butlovchi buyumlar xarid qilish tartibi to`g`risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

(1-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

2. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o`rnbosari R.S.Azimov zimmasiga yuklansin.


O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2012-yil 11-iyul,
209-son

Vazirlar Mahkamasining
2012-yil 11-iyuldagı
209-son qaroriga
1-ILOVA

**«O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi ijro etuvchi apparatining
TUZILMASI**

Oldingi tahrirga qarang.



Xodimlarning cheklangan umumiyo soni — 15 nafar (xizmat ko`rsatuvchi xodimlardan tashqari).
(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli
qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

Vazirlar Mahkamasining
2012-yil 11-iyuldagı
209-son qaroriga
2-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

**«O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan melioratsiya texnikasi,
mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini xarid qilish va lizingga berish,
shuningdek «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining «Meliomashlizingservis»
sho`ba korxonasi tomonidan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa
mexanizatsiyalash vositalariga texnik va servis xizmati ko`rsatish uchun tovarlar, ehtiyyot
qismlar va butlovchi buyumlar xarid qilish tartibi to`g`risida**

NIZOM

(2-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-
sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

1. Ushbu Nizom «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi (keyingi o`rinlarda
Lizingga beruvchi deb ataladi) tomonidan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa

mexanizatsiyalash vositalarini (keyingi o`rinlarda melioratsiya texnikasi deb ataladi) xarid qilish va lizingga berish, shuningdek «O`zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining «Meliomashlizingservis» sho`ba korxonasi (keyingi o`rinlarda sho`ba korxona deb ataladi) tomonidan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalariga texnik va servis xizmati ko`rsatish uchun tovarlar, ehtiyoq qismlar va butlovchi buyumlar xarid qilish mexanizmini belgilaydi.

(1-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O`R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

2. Lizingga beriladigan melioratsiya texnikasi ro`yxati O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini tashkil etish to`g`risida» 2007-yil 31-oktabrdagi PQ-718-son qarori bilan tashkil etilgan Sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi Kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Melioratsiya texnikasiga texnik va servis xizmati ko`rsatish uchun O`zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan tovarlar, ehtiyoq qismlar va butlovchi buyumlar sho`ba korxona tomonidan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi tasdiqlaydigan ro`yxatlar bo`yicha, mahalliy tovarlar, ehtiyoq qismlar va butlovchi buyumlar esa — Lizingga beruvchi tasdiqlaydigan ro`yxatlar bo`yicha olib kiriladi.

(2-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to`ldirilgan — O`R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

3. Melioratsiya texnikasini lizingga berish Lizingga beruvchi tomonidan unga qarz asosida O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi (keyingi o`rinlarda Jamg`arma deb ataladi) tomonidan beriladigan mablag`lar, shuningdek o`z mablag`lari, boshqa jalb etilgan mablag`lar yoki boshqa manbalar mablag`lari hisobiga amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Melioratsiya texnikasiga texnik va servis xizmati ko`rsatish uchun tovarlar, ehtiyoq qismlar va butlovchi buyumlar xarid qilish sho`ba korxona tomonidan o`z mablag`lari, Lizingga beruvchining qarz asosida beriladigan mablag`lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqilanganmagan boshqa jalb etilgan mablag`lar hisobiga amalga oshiriladi.

(3-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to`ldirilgan — O`R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

4. Melioratsiya texnikasi sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini va boshqa suv xo`jaligi ishlarini amalga oshiruvchi suv xo`jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlariga, shuningdek suv iste`molchilari uyushmalariga va fermer xo`jaliklariga (keyingi o`rinlarda Lizingga oluvchilar deb ataladi) 10 yil muddatga lizingga quyidagi shartlar bilan beriladi:

(4-bandning birinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O`R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

a) sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilashni amalga oshiruvchi suv xo`jaligi qurilishi tashkilotlari, shuningdek suv iste`molchilari uyushmalarini va fermer xo`jaliklarini uchun:

lizingga berilayotgan melioratsiya texnikasi qiymatining 15 foizi avans shaklida ularning o`z mablag`lari hisobiga to`lanadi;

lizingga berilayotgan meliorasiya texnikasi qiymatining 85 foizi Lizingga beruvchi tomonidan, unga qarz asosida Jamg`arma tomonidan beriladigan mablag`lar hisobiga moliyalashtiriladi;

b) sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini amalga oshiruvchi suv xo`jaligi foydalanish tashkilotlari uchun lizingga berilayotgan melioratsiya texnikasi

qiymatining 100 foizi Lizingga beruvchi tomonidan, unga qarz asosida Jamg`arma tomonidan beriladigan mablag`lar hisobiga moliyalashtiriladi;

v) melioratsiya texnikasi Lizingga oluvchilarga faqat olinayotgan texnikaning mulkiy tavakkalchiliklarini lizingning butun davri uchun sug`urta qilish bo`yicha «O`zagrosug`urta» davlat-aksiyadorlik kompaniyasining sug`urta polisi mavjud bo`lganda beriladi;

g) Lizingga beruvchining daromad stavkasi (marjasи) lizing shartnomalari tuzilishi sanasidagi O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizidan ortiq bo`lmasligi kerak.

5. Melioratsiya texnikasi Lizingga beruvchi tomonidan o`z mablag`lari, boshqa jalg etilgan mablag`lar (unga qarz asosida Jamg`arma tomonidan beriladigan mablag`lardan tashqari) yoki boshqa manbalar mablag`lari hisobiga lizingga berilganda lizing muddati va Lizingga beruvchi daromadi stavkasi (marjasи) lizing shartnomasida belgilanadi.

6. Lizingga beruvchi har yili 1 avgustdan kechikmay, Lizingga oluvchilardan olingan buyurtmanomalar asosida lizing bo`yicha yetkazib beriladigan melioratsiya texnikasiga kelgusi yildagi ehtiyoj prognozini shakllantiradi.

Jamg`arma mablag`lari hisobiga xarid qilish mo`ljallanayotgan melioratsiya texnikasiga bo`lgan ehtiyoj prognozidan kelib chiqib Lizingga beruvchi va «Agrobank» aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o`rinnarda Bank deb ataladi) Jamg`armaga melioratsiya texnikasi xarid qilishning prognoz hajmlarini, shuningdek Lizingga oluvchilar tomonidan to`lovlar amalga oshirilishini hisobga oluvchi kelgusi yilda mablag`larga bo`lgan ehtiyoj prognozini (yil choraklari bo`yicha) taqdim etadi.

7. Jamg`arma mavjud moliyaviy resurslarni hisobga olgan holda Lizingga beruvchiga lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun kelgusi davrga ajratiladigan pul mablag`lari miqdori yuzasidan kafolat xatlari taqdim etadi.

Lizingga beruvchi Jamg`arma tomonidan ajratiladigan pul mablag`lari to`g`risidagi tasdiqlangan kafolat xatlari asosida, mamlakatimiz va chet el korxonalarida ishlab chiqariladigan melioratsiya texnikasini sotib oladi.

8. Melioratsiya texnikasini o`z mablag`lari, shuningdek boshqa jalg etilgan mablag`lar (Lizingga beruvchiga qarz asosida Jamg`arma tomonidan beriladigan mablag`lardan tashqari) yoki boshqa manbalar mablag`lari hisobiga sotib olish ham Lizingga beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

9. Lizingga beriladigan melioratsiya texnikasini, shuningdek melioratsiya texnikasiga texnik va servis xizmati ko`rsatish uchun tovarlar, ehtirot qismlar va butlovchi buyumlarni yetkazib beruvchilar O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи tomonidan tasdiqlanadigan tarkibdagi Idoralararo tender komissiyasi tomonidan tender asosida aniqlanadi.

(9-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O`R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

10. Lizingga beruvchi kelgusi yilga:

Jamg`arma bilan (melioratsiya texnikasi Jamg`arma mablag`lari hisobiga sotib olingan taqdirda) – melioratsiya texnikasi sotib olish uchun moliyaviy resurslar ajratish yuzasidan shartnomalari tuzadi. Bunda lizing bo`yicha daromad (marja) miqdori, shuningdek Lizingga oluvchilar tomonidan to`lanadigan lizing to`lovlaridan ushlab qolinishi kerak bo`lgan Lizingga beruvchining xizmatlariga haq to`lash miqdori belgilanadi;

yetkazib beruvchilar bilan — Lizingga oluvchining buyurtmasiga muvofiq melioratsiya texnikasini yetkazib berish yuzasidan;

Bank bilan — uning tomonidan moliyaviy agent funksiyalari bajarilishi yuzasidan;

«O`zagrosug`urta» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi bilan — sug`urta agenti funksiyalarini bajarish yuzasidan shartnomalar tuzadi.

11. Lizingga beruvchi Lizingga oluvchilar bilan melioratsiya texnikasi lizingi shartnomalarini tuzadi. Har bir shartnomaga lizing to`lovları (asosiy summa plus lizing

bo`yicha foizlar) jadvali ilova qilinadi. Bunda shartnomaning bitta asl nusxasi Bankka jo`natiladi.

12. Melioratsiya texnikasi uchun haq to`lash tartibi Lizingga beruvchi bilan yetkazib beruvchi o`rtasida tuzilgan lizing ob`yektining oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq tartibga solinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Sho`ba korxona tomonidan melioratsiya texnikasiga texnik va servis xizmati ko`rsatish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

(12-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to`ldirilgan — O`R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

13. Melioratsiya texnikasi Jamg`arma mablag`lari hisobiga sotib olingan taqdirda Lizingga beruvchi:

pul mablag`lari ajratish yuzasidan Jamg`armaga buyurtmanomalar taqdim etadi. Ushbu buyurtmanomalar asosida Jamg`arma uch bank kuni mobaynida kelgusi davr uchun pul mablag`larini Jamg`arma mablag`lari bilan operatsiyalar uchun mo`ljallangan Lizingga beruvchining Bankdagi maxsus hisob raqamiga (keyingi o`rinlarda Operatsiya hisob raqami deb ataladi) o`tkazadi;

lizing bo`yicha olingan foizlardan tijorat agenti funksiyalarini bajarish uchun shartnomada belgilangan miqdorda o`zining xizmatlariga to`lanadigan to`lov hisobiga mablag`larni ushlab qoladi, Lizingga oluvchilardan tushgan summaning qolgan qismini uch kun muddatda Jamg`armaning bankdagi hisob raqamiga o`tkazadi;

har bir kalendar yil choragi tamom bo`lgandan keyin 20 kundan kechikmay Jamg`armaga o`tgan yil choragi uchun Operatsiya hisob raqamidagi pul mablag`larining harakati to`g`risida Bank tomonidan tasdiqlangan hisobotni taqdim etadi.

14. Lizingga oluvchi (sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini amalga oshiruvchi suv xo`jaligi foydalanish tashkilotlaridan tashqari):

Lizingga beruvchiga lizingga olinadigan melioratsiya texnikasi qiymatining 15 foizini avans to`lovi tarzida to`laydi;

lizing to`lovlari jadvaliga muvofiq melioratsiya texnikasi qiymatining qolgan 85 foizini va lizing bo`yicha foizlarni lizing muddati mobaynida Lizingga beruvchiga to`laydi.

Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini amalga oshiruvchi suv xo`jaligi foydalanish tashkilotlari lizing muddati mobaynida melioratsiya texnikasi qiymatining 100 foizini va lizing bo`yicha foizlarni lizing to`lovlari jadvaliga muvofiq to`laydilar.

Barcha Lizingga oluvchilar lizingga olinadigan melioratsiya texnikasini Lizingga beruvchi foydasiga o`z mablag`lari hisobiga sug`urta qiladilar.

15. Lizingga oluvchilar lizing to`lovlarini lizing shartnomalarida belgilangan muddatlarda va miqdorlarda Lizingga beruvchiga to`laydilar. Ko`rsatib o`tilgan mablag`lar to`liq miqdorda Lizingga beruvchining Operatsiya hisob raqamiga o`tkaziladi.

16. Lizingga beruvchi, Bank va ularning bo`linmalari rahbarlari Jamg`arma mablag`laridan, o`z mablag`laridan yoki boshqa mablag`lardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

17. Lizingga oluvchi tomonidan jadvalda nazarda tutilgan lizing to`lovlari o`z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, Lizingga beruvchi moliya agenti orqali Lizingga oluvchining bank hisob raqamiga belgilangan tartibda bajarilishi kerak bo`lgan to`lov talabnomalarini taqdim etadi. Lizingga oluvchilardan to`lov talabnomalari bo`yicha undirilgan pul mablag`lari Lizingga beruvchining Operatsiya hisob raqamiga o`tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasini tashkil etish to'g'risida» 2007-yil 21-dekabrdagi 266-son qarorida (O'zbekiston Respublikasi QT, 2007 y., 12-son, 73-modda):

a) 3-bandda:

to'rtinchi xatboshidagi «melioratsiya texnikasi» so'zlaridan keyin «mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari» so'zlar qo'shilsin;

oltinchi xatboshidagi «melioratsiya texnikasi» so'zlaridan keyin «mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari» so'zlar qo'shilsin;

b) 4-bandda:

birinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

ikkinchi va uchinchi xatboshilar tegishli ravishda birinchi va ikkinchi xatboshilar deb hisoblansin;

birinchi xatboshidan «va uning o'rribosari» so'zlar qo'shilsin.

v) 6-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

«6. Belgilab qo'yilsinki, melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini amalga oshiradigan suv xo'jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlariga, shuningdek suv iste'molchilar uyushmalariga va fermer xo'jaliklariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi Kengashining qarori asosida 10 yil muddatga lizingga quyidagi shartlar bilan beriladi:

a) sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini amalga oshiradigan suv xo'jaligi qurilish tashkilotlari uchun, shuningdek suv iste'molchilar uyushmalariga va fermer xo'jaliklar uchun:

lizingga berilayotgan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari qiymatining 15 foizi avans shaklida ularning o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi;

lizingga berilayotgan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari qiymatining 85 foizi «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan, unga qarz asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tomonidan beriladigan mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladi;

b) sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini amalga oshiradigan suv xo'jaligidan foydalanish tashkilotlari uchun lizingga berilayotgan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari qiymatining 100 foizi «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan, unga qarz asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tomonidan beriladigan mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladi;

v) melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini lizingga berish faqat olinayotgan texnikaning mulkiy tavakkalchilagini lizingning butun davri uchun «O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi sug'urta polisi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi;

g) Lizingga beruvchining daromad stavkasi (marjas) lizing shartnomalari tuzilishi sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak;

g) quyidagi mazmundagi 6-1-band qo'shilsin:

«6-1. Belgilansinki, «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan o'z mablag'lari, boshqa jalb qilingan mablag'lar (unga qarz asosida Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tomonidan beriladigan mablag'lardan tashqari) yoki boshqa manbalar mablag'lari hisobiga melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini lizingga berishda lizing muddati va «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining daromad stavkasi (marjasni) lizing shartnomasida belgilanadi»;

d) 7-bandning ikkinchi xatboshidagi «melioratsiya texnikasini» so'zlaridan keyin «mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini» so'zlarini qo'shilsin;

e) 9-band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

j) 11-bandning birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

«11. «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi «Ma'muriy bino maxsus servis» davlat sho'ba korxonasining Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy manzilidagi binosiga joylashtirilsin»;

z) 1 va 2-ilovalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 5-fevraldagi 54-f-son farmoyishi bilan tasdiqlangan «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi Ustavida:

a) 4-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

«4. Kompaniyaning joylashgan joyi (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, 100008, Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy»;

b) 11-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

«11. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini oshiradigan suv xo'jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlariga, shuningdek suv iste'molchilarini uyushmalariga va fermer xo'jaliklariga ularning buyurtmanomalari asosida melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini xarid qilish va berish «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining faoliyat sohasi va asosiy vazifalari hisoblanadi»;

v) 12-bandda:

ikkinchi va beshinchi xatboshidagi «suvdan foydalanuvchilar» so'zlarini «suv iste'molchilarini» so'zlarini bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi «hamda» so'zi «shuningdek lizing Kompaniyasining o'z mablag'lari, jalb qilingan yoki boshqa mablag'lar hisobiga» so'zlarini bilan almashtirilsin;

g) 31-bandning ikkinchi xatboshidagi «va uning o'rribosari» so'zlarini chiqarib tashlansin;

d) 34-bandning uchinchi xatboshidagi «ijro etuvchi direktor o'rribosari va» so'zlarini chiqarib tashlansin.

3. Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida» 2009-yil 30-martdagi PQ-1083-son va «Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida» 2009-yil 30-martdagi PQ-1084-son qarorlari») 2009-yil 20-maydag'i 142-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QT, 2009 y., 5-son, 37-modda) 1-ilova 23-bandining «b» kichik bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida («Qishloq va suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 25-dekabrdagi O'RQ-240-son Qonuni») 2011-yil 18-fevraldagi 40-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QT, 2011 y., 2-son, 12-modda) ilova 7-bandining «g» kichik bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.